

3. Bennett M. J. Developing Intercultural Competence. – Portland: Intercultural Communication Institute, 2004.
5. Hameed N., Shaikh M. U., Hameed F., Shamim A. Cultural Differences in E-learning: Exploring New Dimensions // *International Journal of E-Learning*. – 2016. – Vol. 15, No. 3. – P. 45–60.
6. Karimova Aziza. (2025). Cultural adaptation in foreign language teaching: integrating local and global perspectives. 7(1), 38–43.
7. Rajabov X.S., Xasanova M.A. Onlayn platformalar orqali ingliz tilini o‘rganishning afzalliklari // *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*. – 2024. – 4(7). – B. 239–245.
8. Tayebinik M., Puteh M. Sense of Community in Blended Learning Courses. – Kuala Lumpur: Universiti Teknologi Malaysia Press, 2012.

IJTIMOIIY TARMOQLARNING INGLIZ TILINI O‘RGANISH JARAYONIGA TA’SIRI

Mamadaminova Aziza Baxromjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Ahmedova Dildora Abdurahim qizi

Annotatsiya: Hozirgi axborot-texnologiyalar jadal sur‘atda rivojlanayotgan zamonamizda ijtimoiy tarmoqlar ilm ma‘rifatda ham o‘z o‘rnini topmoqda va shu bilan birgalikda tillarni o‘rganish jarayoniga ta‘sirini ko‘rsatmay qolmayapti, xususan ingliz tilini o‘rganish va o‘rgatish uchun ham bir qancha foydalar keltirmoqda. Ushbu maqola ijtimoiy tarmoqlarning ingliz tilini o‘rganish jarayonidagi o‘rni va ta‘sirini tadqiq qilishga qaratilgan. So‘nggi yillarda Instagram, You Tube va Tik Tok kabi ijtimoiy tarmoq sahifalaridagi kontentlarning til ko‘nikmalariga ta‘siri ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot davomida kuzatish va tahlil usullaridan foydalanib, lug‘at boyligini oshirish, tinglab tushunish va og‘zaki nutqdagi o‘rni aniqlangan. Shu asnda, diqqatning boshqa narsalarga yo‘nalishi va noto‘g‘ri til namunalarining ta‘siri kabi salbiy jihatlar ham yoritilgan. Taqdiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlardan maqsadli va ongli foydalanish barcha tillar, balki, ingliz tilini o‘rganish samaradorligini oshiradi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy tarmoqlar, kontent, onlayn mashg‘ulot.

Annotation: In our era of rapid development of information technologies, social networks are finding their place in science and education, and at the same time, they do not fail to show their influence on the process of learning languages, especially for learning and teaching

English. This article is aimed at researching the role and influence of social networks in the process of learning English. In recent years, the influence of content on social network pages such as Instagram, You Tube and Tik Tok on language skills is considered. In the continuation of the research, using the methods of observation and analysis, the role of increasing vocabulary, listening comprehension and oral speech was determined. At the same time, negative aspects such as the direction of attention to other things and the influence of incorrect language patterns are also highlighted. Research results show that purposeful and conscious use of social networks increases the effectiveness of learning all languages, but also English.

Key words: social media, content, online activities.

Dunyo bo‘ylab o‘zaro bog‘liqlik va globallashuvning tobora o‘sib borayotgan darajasi sababli ushbu zamonaviy dunyoda bevosita va tegishli aloqa usullarining ahamiyati juda tez ortib bormoqda. Hozirgi kunda, Ijtimoiy tarmoqlar nafaqat hordiq, balki, endigi kunda bilim oluvchilar, yoki til bilimdonlari uchun qo‘l kelmoqda. Avvalo ijtimoiy tarmoqlar to‘g‘risida so‘z yuritadign bo‘lsak, Ijtimoiy tarmoq – bu qiziqishlari o‘xshash yoki oflayn aloqaga ega bo‘lmagan odamlar o‘rtasida muloqot qilish, tanishish, ijtimoiy munosabatlar yaratish uchun, shuningdek, ko‘ngilochar va ish maqsadlarida ishlatiladigan onlayn platforma hisoblanadi. Ijtimoiy xatcho‘plar (inglizcha: social bookmarking). Ba’zi veb-saytlar foydalanuvchilarga xatcho‘plar yoki mashhur veb-saytlar ro‘yxatini boshqalar bilan baham ko‘rish imkonini beradi. Bunday saytlardan umumiy qiziqishlarga ega foydalanuvchilarni topish uchun ham foydalanish mumkin. Masalan: Delicious, Pinterest

Ijtimoiy kataloglar (inglizcha: social cataloging) ijtimoiy xatcho‘plarga o‘xshaydi, lekin akademik maqsadlarga qaratilgan bo‘lib, foydalanuvchilarga ilmiy maqolalardan olingan iqtiboslarning ma’lumotlar bazalari bilan ishlash imkonini beradi. Masalan: Academic Search Premier, LexisNexis, Akademik universitet, CiteULike, Connotea.

Ijtimoiy kutubxonalar – bu sayt mehmonlariga o‘zlarining to‘plamlari, kitoblari, audio yozuvlari va boshqalarga havolalarni qoldirish imkonini beruvchi ilovalardir. Tizimni qo‘llab-quvvatlovchi tavsiyalar, reytinglar va boshqalar ko‘zda tutilgan. Masalan: discogs.com, IMDb.com.

Ijtimoiy media omborlari – media fayllarni birgalikda foydalanish uchun saqlash xizmati. Ularni ushbu serverlarda joylashgan fayllar turiga qarab tasniflash mumkin.

Ixtisoslashgan ijtimoiy tarmoqlar. Odamlarni ma’lum mezonlarga ko‘ra birlashtiradi (masalan, yoshi, jinsi, dini, ma’lum sevimli mashg‘ulotlari va boshqalar).

Professional ijtimoiy tarmoqlar professional mavzularda muloqot qilish, tajriba va axborot almashish, bo‘sh ish o‘rinlarini qidirish va taklif qilish, biznes aloqalarini rivojlantirish uchun yaratiladi. Masalan: LinkedIn, Moy Krug, Professional.ru.

Korporativ ijtimoiy tarmoqlar kompaniya faoliyatini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash muammolarini hal qiladi .

Hujjatlar bilan birgalikda ishlash uchun xizmatlar.

Geosotsial tarmoqlar foydalanuvchining geografik joylashuvidan kelib chiqib ijtimoiy aloqalarni o‘rnatish imkonini beradi. Bunday holda, turli xil geolokatsiya vositalaridan foydalaniladi , ular ma’lum bir foydalanuvchining hozirgi joylashuvini aniqlash va uning pozitsiyasini turli maskanlar va odamlarning joylashuvi bilan solishtirish imkonini beradi. Endi bir tarixga ya’ni ijtimoiy tarmoqlar rivojlangunga qadar bo‘lgan mehnat va tajribalar bilan tanishamiz. 1803-1869-yillarda yashagan XIX asr rus yozuvchisi, faylasufi va jamoat arbobi Vladimir Odoyevskiy o‘zining 1835-yilda yozilgan „4338-yil“ tugallanmagan utopik romanida zamonaviy bloglar va umuman internetning paydo bo‘lishini bashorat qilgan edi. Unda aytilishicha, „tanish uylar o‘rtasida magnit telegraflar joylashgan bo‘lib, ular orqali uzoq masofada yashovchilar bir-biri bilan gaplashadi“, shuningdek, „ko‘p xonadonlarda, ayniqsa yaxshi tanish bo‘lganlar o‘rtasida“ nashr etiladigan “uy gazetalari “ haqida: bu gazetalar “oddiy yozishmalar o‘rnini bosadi “, ularda „odatda egalarining sog‘lig‘i yoki kasalligi haqida xabarlar va uydagi boshqa yangiliklari, so‘ngra turli fikrlar, mulohazalar, kichik ixtirolar, shuningdek, qachon tushlikka chaqirilishi, ba’zan esa le menyu o‘rin oladi“

Ijtimoiy tarmoqlarning eng avvalgi shakli elektron e’lonlar taxtasi bo‘lib, ularning birinchisini CBBS nomi ostida IBM xodimi U. Kristensen tomonidan 1978-yilda yaratilgan. 1983-yilda allaqachon dunyoda 800 ta, 1988-yilda esa 5000 ta elektron doskalar mavjud edi

Internetda ijtimoiy tarmoqlar 1995-yilda Classmates.com AQSh portali paydo bo‘lishi bilan mashhurlikka erisha boshladi. Loyiha juda muvaffaqiyatli bo‘ldi, bu keyingi sanoqli yillarda bir necha o‘nlab shunga o‘xshash xizmatlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Lekin ijtimoiy tarmoq „portlash“ining rasmiy boshlanishi 2003-2004-yillarda AQShda LinkedIn, MySpace va Facebook ishga tushirilgani hisoblanadi. Internetning rus tilida so‘zlashuvchi segmentida Odnoklassniki va Vkontakte ko‘rinishidagi ijtimoiy tarmoqlar 2006-yildan beri ommalasha boshladi.

Tillar ommalashuvi va dunyo tillari negizida ingliz tili. XXI asrga kelib tilshunoslikning tilni shunchaki aloqa vositasi va tafakkur natijasi sifatida emas, millatning madaniy ochqichi sifatida tadqiq etadigan sohalar yuzaga kelmoqda. Bu yo‘nalishlarning paydo bo‘lishiga V. Gumboldt, A.A. Potebnya va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida keltirib o‘tilgan. Jumladan, V.Gumboldt “Millatim tilining chegaralari mening dunyoqarashim chegaralarini belgilaydi”, - deb aytgan edi. Til nafaqat borliqni aks ettirish funktsiyasini bajaradi, shuningdek, inson yashayotgan borliq, muhitni uning ongiga tabdil qilib beradi. Aynan Shu tufayli ham keyingi ming yillikda G‘arb falsafasi tildan foydalanish jarayoniga asoslanib rivojlanmoqda. Yuqorida keltirilgan olimlar tilni ommalashtirmadi – ular ilmiy asos yaratdi, lekin bu asos bo‘lmasa edi, keyingi rivoj bo‘lmas edi. Chomskiyning 1957-yilda nashr etilgan Syntactic Structures asari zamonaviy tilshunoslikning burilish nuqtasiga aylandi. U bunda til tizimini matematik modelga solib tahlil qilishga harakat qilgan. Uning asosiy g‘oyalari:

Til cheklangan qoidalar asosida cheksiz gap tuzish imkonini beradi; Har bir insonda universal grammatika degan ongsiz bilim mavjud; Til biologik asosga ega va inson ongining ajralmas qismi.

Chomskiy B.F. Skinnerning xulq-atvorga asoslangan til nazariyasiga keskin tanqid bilan qaragan. U tilni faqat tajriba orqali o‘rganiladi degan g‘oyani inkor etib, til qobiliyati tug‘ma ekanini ilmiy asoslab bergan.

Falsafa va ong nazariyasi: Chomskiy ong va til o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, ong haqidagi bilimlar, sintaktik tafakkur va tafakkur turlari haqida falsafiy qarashlar ishlab chiqqan. U dekartchilarning oqibatlar nazariyasini davom ettirgan. Alisher Navoiy, Markaziy Osiyoda XV asrda yashab ijod qilgan buyuk shoir, mutafakkir va davlat arbobi sifatida tarixda qoldi. Uning merosi nafaqat o‘zbek, balki barcha turkiy xalqlar uchun bebaho bo‘lib, uning asarlari bugungi kunda ham adabiyot va tilshunoslik sohalarida o‘rganilmoqda. Uning mashhur asarlaridan biri “Muhokamat al-lughatayn” (Ikki Tilning Muhokamasi) – bu asar Navoiyning tilshunoslikka qo‘shgan hissasi doirasida juda muhimdir. Unda shoir turkiy va fors tillarining imkoniyatlarini solishtiradi, ularning har birining adabiy va ilmiy sohalaridagi o‘rinini baholaydi. Asar turkiy tilning boy imkoniyatlarini Ilmiy jihatdan yoritishga qaratilgan. Bundan tashqari bugungi kunda nafaqat o‘rta Osiyo xalqlari, balki butun dunyo elatlari orasida ingliz tilining ahamiyati va uni o‘rganishga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Axborotlashtirish va globallashtirish rivojlanishi bilan butun dunyoda aksariyat odamlar boshqa mintaqalar aholisi bilan faqat bitta xalqaro tan olingan tilda, ya’ni ingliz tilida muloqot qilayotgani aniq. Ingliz tili - bu agent va xalqaro kompaniya o‘rtasida deyarli ishlatiladigan til

sifatida ko‘rilmoqda. Ingliz tili birinchi dunyo tili bo‘lib, birinchi global lingua franca deb aytiladi va xalqaro savdo, diplomatiya, ommaviy ko‘ngilochar o‘yin-kulgi, xalqaro telekommunikatsiya va ilmiy nashrlarda, shuningdek, gazeta va boshqa kitoblarni nashr etishda dunyoda eng keng qo‘llaniladigan tildir. Ingliz tilmasi zamonaviy dunyoda eng tez o‘sib borayotgan tilga aylandi va dunyoni bog‘lab, tijorat tili maqomini egallaydi. Ingliz tili deyarli barcha sohalarda, masalan, fan, muhandislik va texnologiya, tibbiyot, savdo va tijorat, ilmiy tadqiqotlar, ta‘lim, turizm, internet, bank, biznes, reklama, kino sanoati, transport, farmatsevtika va boshqa sohalarda keng tarqalgan. Shunday ekan ingliz tilini o‘rganish va o‘rgatish talabining ortishi bejiz emas va bugungi kunda til o‘rgatnashning turli usullari, ya’ni oson yo‘llari mavjud, misol uchun: uzoqqa bormagan holda, ya’ni onlayn, yana agarda “yo‘q men bunday narsalarga ishonolmayman!”-desangiz oflayn ya’ni o‘qituvchi bilan jonli, yuzma yuz uchrashgan holda tahsil olish imkoniyatlari mavjuddir.

Onlayn platformalar orqali ingliz tilini o‘rganish, texnologik vositalar va internet Imkoniyatlaridan foydalangan holda, turli darajadagi o‘quvchilarga til o‘rganish Imkoniyatini taqdim etish jarayonidir. Bu jarayon, o‘quv materiallarini elektron shaklda taqdim etish, virtual sinflar orqali jonli darslar o‘tkazish, interaktiv mashg‘ulotlar va o‘z-o‘zini baholash testlarini o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar onlayn platformada ro‘yxatdan o‘tganlaridan so‘ng, o‘zlarining o‘rganish yo‘llarini mustaqil belgilay oladilar, bu esa ularning shaxsiy ehtiyojlariga va o‘rganish tezliklariga moslashuvchanlikni ta‘minlaydi. Zamonaviy onlayn ta‘lim platformalari o‘quvchilarga ingliz tilini chuqurroq va Samarali o‘rganish imkoniyatini yaratib beradi. Bu platformalar orasida “Duolingo”, “Rosetta Stone”, “Babbel” kabi taniqli dasturlar mavjud. Masalan, “Duolingo” o‘yinlashtirilgan yondashuvni qo‘llaydi, bu esa o‘quvchilarni til o‘rganish jarayoniga ko‘proq jalb qiladi. Har bir to‘g‘ri javob uchun ballar va mukofotlar beriladi, bu esa motivatsiyani oshiradi. Bundan tashqari o‘tilgan darsni mustahkamlash uchun “Kahoot”, va talaba hamda o‘quvchilarni guruh bo‘lib ishlashga undaydigan “Bamboozle” ilovasi ham mavjud. Yuqorida berilgan barcha platformalar darslarni samaradorligini oshirish hamda o‘tilgan darslarni dars jarayonida takrorlash va mustahkamlash uchun ko‘maklashadi. Shuningdek, YouTube’dagi o‘quv kanallari va TED Talks kabi ma‘ruzalar, Instagram platformasidagi shaxsiy va business sahifa yurutuvchi tajribali ingliz tili bilimdonlari va o‘qituvchilari berayotgan materiallar, kitob va shu kabi foydali mahsulot va maslahatlaridan ham mavjud. Tanganing ikki tomoni bo‘lgani kabi onlayn til o‘rganishda ham bir qancha firibgar, yolg‘onchi va saviyasi past bo‘lgan murabbiylarga ham duch kelish heh gap emas. Bundan tashqari, bunday muhitda

yuzaki muloqot ustunlik qiladi va tizimli o‘rganishdan chalg‘itadi. Yuzaki o‘rganish: Ijtimoiy tarmoqlar chuqur tahlil va tizimli o‘rganishni talab qilmaydi, ko‘pincha qiziqish uchun faqat yengil kontent iste‘mol qilinadi, bu esa tilni fundamental darajada o‘zlashtirishga to‘sqinlik qiladi. Vaqt isrofi va chalg‘ish: Til o‘rganish uchun kirilgan bo‘lsa-da, tarmoqlardagi boshqa kontentlar asosiy maqsaddan chalg‘itib, vaqtni bekorga sarflanishini ta‘minlaydi. Yaroqsiz va sifatsiz ma‘lumotlar: Tarmoqlarda har kim kontent yaratishi sababli, grammatikasi buzilgan, noo‘rin yoki keraksiz til namunalarini o‘rganib qo‘yish xavfi yuqori.

Umuman olganda, XXI asrda har kim zamonaviy texnologiyalardan istalgan maqsadda foydalanib kelmoqda asosan yoshlar va o‘rta yoshli vaqti bor yoki vaqti tig‘iz kishilar til kurslariga qatnash o‘rniga onlayn til o‘rganish, millatlar qadriyatlarini almashishni afzal bilishadi, Shunday ekan, Har ne‘matdan unumli foydalanish zarur.

Foydalangan adabiyotlar:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ijtimoiy_tarmoq .
2. Chomsky, Noam. Syntactic Structures (1957)
3. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/64733/65874> .

THE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON MODERN EDUCATION: OPPORTUNITIES, CHALLENGES, AND BALANCED INTEGRATION

Botirova Munira Jahongir qizi

Munirabotirova03@gmail.com

*Scientific Supervisor: Odilboyeva Umida Zafarjon qizi,
Namangan State Pedagogical Institute*

Abstract: This article explores the influence of digital technologies on contemporary education by analyzing both their advantages and limitations. In recent years, rapid technological advancement has transformed traditional educational practices, introducing innovative teaching and learning approaches. On the one hand, digital tools enhance accessibility, flexibility, and student engagement, enabling learners to access global knowledge resources and personalized learning environments. On the other hand, the growing reliance on technology has led to several challenges, including decreased attention span, digital inequality, and health-related concerns. The article critically examines these aspects and highlights the necessity of a balanced and responsible approach to technology integration in education. It argues that effective